

Noqonuniy Miting, Yig‘ilish Va Namoyishlar Jamoat Xavfsizligiga Tahdid Sifatida

Narzullayev Otabek Saydulla o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi IIV TQD katta tezkor vakili, podpolkovnik yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta‘minlash va ijtimoiy barqarorlikni saqlashga qaratilgan so‘nggi islohotlar tahlil qilingan bo‘lib, noqonuniy miting, yig‘ilish va namoyishlarning jamoat xavfsizligiga tahdid ekanligi yuzasidan bir qator amaliy misollar keltirilgan. Shuningdek, jamoat xavfsizligini ta‘minlashda ishtirok etuvchi turli davlat organlari va fuqarolik jamiyati subyektlarining roli to‘g‘risida fikr yuritilgan hamda o‘rganilgan misollar orqali miting, yig‘ilish va namoyishlarning ijtimoiy va siyosiy muammolar oqibatida kelib chiqishi, shuningdek, bu kabi tadbirlarning xavfsizlik tizimiga ta‘siri yoritib o‘tilgan. Shu bilan birga, ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal etilishi noqonuniy miting, yig‘ilish va namoyishlar yuzaga kelishining oldini olish yuzasidan muhim omil ekanligi bo‘yicha xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Miting, yig‘ilish, namoyish, jamoat xavfsizligi, qonunchilik, ijtimoiy muammolar.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda aholining tinch va osoyishta hayotini ta‘minlash, qonunga itoatkorlik, shuningdek jamoat xavfsizligi tizimini shakllantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, jamoat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha yangi mexanizm va tartiblar joriy etildi, jamoatchilik tuzilmalari hamda davlat organlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.

Shuningdek, jahonda yuz berayotgan geosiyosiy voqea-hodisalar, xavf-xatar va ziddiyatlar, jamoat xavfsizligiga nisbatan turli tahdidlar davlat organlarining o‘z faoliyatini yanada takomillashtirishlari lozimligini taqozo etmoqda.

Chunonchi, mamlakatimizda jamoat xavfsizligini samarali ta‘minlash tizimini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PF–6196-son “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni¹ga muvofiq 2021-yil 29-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi”² qabul qilindi.

Mazkur konsepsiya, o‘z navbatida, jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi davlat siyosatini belgilab berdi.

Shuningdek, mazkur hujjatga ko‘ra, jamoat xavfsizligini ta‘minlovchi asosiy hamda ishtirok etuvchi subyektlar belgilangan holda yangi bir tizim yaratildi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 26.03.2021 йилдаги “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6196-сон Фармони, Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.03.2021 й., 06/21/6196/0240-сон

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 29.11.2021 йилдаги “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сон Фармони, Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.12.2021 й., 06/21/27/1116-сон

Jamoat xavfsizligini ta'minlovchi asosiy subyektlar etib quyidagilar belgilandi:

Vazirlar Mahkamasi;

Ichki ishlar vazirligi;

Milliy gvardiya;

Favqulodda vaziyatlar vazirligi;

Davlat xavfsizlik xizmati;

Bosh prokuratura;

Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi;

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi;

Sog'liqni saqlash vazirligi;

mahalliy davlat hokimiyati organlari.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etuvchi subyektlar etib esa quyidagilar belgilandi:

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari;

nodavlat notijorat tashkilotlar;

boshqa davlat organlari va tashkilotlari;

fuqarolar³.

Yuqorida keltirilgan jamoat xavfsizligini ta'minlovchi subyektlar o'zlarining vakolat doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshiradi.

Bundan ko'rinib turibdi-ki, bugungi kunda yurtimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib, mamlakatdagi siyosiy-ijtimoiy masalalar bilan bog'liq ijtimoiy faollik turlarini o'tkazish harakatlarining ortib borayotganligi hamda ularning mamlakatdagi barqaror vaziyatga tahdid solishida jamoat xavfsizligi masalalari ahamiyati yanada kuchaymoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda miting, yig'ilish va namoyishlarni o'tkazish tartibi qonun bilan tartibga solinmaganligiga qaramasdan, ularni amalga oshirish tendensiyasi ortib bormoqda.

Tahlillarga ko'ra, miting, yig'ilish va namoyishlar statistikasi salmoqli ravishda o'sib borayotganligini, ular natijasida jamoat xavfsizligiga turli tahdidlar yuzaga kelayotganligini, fuqarolar, shuningdek huquq-tartibot organlari xodimlarining tan jarohatlari olayotganliklarini qayd etgan holda, mazkur tadbirlar aksariyat hollarda davlat muassasalari, xususan, viloyat, shahar va tuman hokimliklarining ma'muriy binolari oldida tashkil etilayotganligini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, Instagram, YouTube, Facebook hamda boshqa Internet ijtimoiy tarmoqlari orqali miting, yig'ilish va namoyishlar bilan bog'liq jarayonlarning yoritilishi kuchaymoqda. 2021–2022-yillarda Internet ijtimoiy tarmoqlarida shov-shuvga sabab bo'lgan bir qator miting, yig'ilish va namoyishlar amalga oshirilgan, jumladan:

2021-yilning 15-yanvar kuni 200 ga yaqin fuqaro tomonidan Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar hokimligining mingga yaqin mevali daraxtlarni kesganligi yuzasidan norozilik bildirilib, avtomobil qatnov yo'li to'sib qo'yilgan⁴;

2021-yilning 28-mart kuni blogger Miraziz Bazarov "anime" (yapon animatsiyasi) va "K-pop" (koreys pop-musiqasi) muxlislarini ijtimoiy tarmoqlar orqali Toshkent shahridagi Amir Temur xiyobonida yig'ilishiga chaqirganlik holatiga qarshi noqonuniy miting o'tkazilgan⁵;

³ O'sha manba

⁴ В Карши на митинге против вырубki деревьев полиция задержала трех женщин [Elektron manba] // URL: <https://mediazona.ca/news/2021/01/15/karshi> (murojaat etilgan vaqt 10.03.2022 y.)

2021-yilning 6-aprel kuni bir guruh fuqarolar chorva mollari uchun yaylovlar xususiylashtirilib berilayotganligidan norozi bo'lib, o'z podasini Samarqand viloyatining Nurobod tumani hokimligi binosi oldiga haydab kelgan⁶;

2021-yilning 21-aprel kuni Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida 1-sinfda o'quvchi qizning yo'l transport hodisasi oqibatida vafot etganligi natijasida 23-aprel kuni bir guruh ayollar tomonidan Qarshi-Samarqand yo'lining Xo'jaobod qishlog'i hududidan o'tuvchi qismi norozilik tariqasida to'sib qo'yilgan⁷;

2021-yilning 15-may kuni Toshkent viloyatining Chirchiq shahri hokimligi binosi yaqinida ish haqlari to'lanmagan quruvchilar norozilik bildirib, namoyishga chiqqan⁸;

2021-yilning 11-iyun kuni Navoiy viloyati Navbahor tumani "Xalovat Tepa" MFYda yashovchi fuqarolar tomonidan ularning noqonuniy ravishda olib qo'yilgan chorva mollari va mol-mulkini qaytarib berish yuzasidan "Qalqon ota" qo'rg'oni hududidan o'tadigan avtomobil qatnov yo'li to'sib qo'yilgan⁹;

2021-yilning 5-iyul kuni 13 nafar fuqaro tomonidan Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanida elektr ta'minoti bilan bog'liq muammoni hal qilish yuzasidan "Ayratom" stansiyasida "Afrosiyob" tezyurar poyezdi yo'lini to'sish harakati amalga oshirilgan¹⁰;

2021-yilning 9-dekabr kuni Toshkent shahrida "Qo'yliq" bozorining ko'chirilishiga qarshi noqonuniy miting o'tkazilgan¹¹;

2021-yilning 11-dekabr kuni "Qashqadaryo neft-gaz qurilish va ta'mirlash" AJning 30 nafarga yaqin ishchi xodimlari viloyat hokimligi oldida maoshsiz ishlayotgani bois, oilasida muammo yuzaga kelganini aytib namoyish o'tkazgan¹²;

2021-yil 17-dekabr kuni Toshkent shahar Chilonzor tumani Obodonlashtirish boshqarmasi ishchilari bir necha oydan beri oylik maoshini to'liq miqdorda olmayotganligi, doimiy kechiktirilishi va qisqartirilishidan norozi bo'lib, Chilonzor tumani hokimiyati oldida to'planib namoyish o'tkazgan¹³;

2022-yilning 22-yanvar kuni Toshkent shahar M.Ulug'bek tumanidagi "Kamolot" mahalla fuqarolar yig'inidagi beshta ko'p qavatli uy aholisi tomonidan ko'p yillik daraxtlar kesilishi va ularning

⁵ В центре Ташкента толпа пыталась избить двух человек за то, что они якобы принадлежали к ЛГБТ-сообществу. 12 нападавших задержаны [Elektron manba] // URL: <https://www.podrobno.uz/cat/proisshestviya/v-tsentre-tashkenta-tolpa-iz-bolee-chem-20-chelovek-pytalis-izbit-/> (murojaat etilgan vaqt 10.03.2022 y.)

⁶ Пастухи в Узбекистане вышли на митинг со стадом баранов [Elektron manba] // URL: <https://www.facebook.com/CurrentTimeAsia/videos/пастухи-в-узбекистане-вышли-на-митинг-со-стадом-баранов/208340127319962/> (murojaat etilgan vaqt 10.03.2022 y.)

⁷ Чирокчида аёллар йўлни тўсиб қўйишди. Бунга 7 ёшли боланинг ўлими сабаб бўлган [Elektron manba] // URL: <https://xabar.uz/hodisa/chiroqchida-ayollar-yol> (murojaat etilgan vaqt 10.03.2022 y.)

⁸ Чирчикда ҳокимлик биноси олдида намоёишга чиққан қурувчиларнинг иш ҳақини тўламаган тadbirkor жаримага тортилди [Elektron manba] // URL: <https://daryo.uz/k/2021/05/12/chirchiqda-hokimlik-binosa-oldida-namoyishga-chiqqan-quruvchilarning-ish-haqini-tolamagan-tadbirkor-jarimaga-tortildi/> (murojaat etilgan vaqt 10.03.2022 y.)

⁹ В Навои обманутые граждане устроили митинг [Elektron manba] // URL: <https://vzglyad.uz/2021/06/11/v-navoi-obmanutye-grazhdane-ustroili-miting-video> (murojaat etilgan vaqt 10.03.2022 y.)

¹⁰ Девять человек, перекрывших железную дорогу из-за проблем с электричеством, отправили на 15 суток за решетку [Elektron manba] // URL: <https://podrobno.uz/cat/proisshestviya/devyat-chelovek-perekryvshikh-zheleznuyu-dorogu-iz-za-problem-s-elektrichestvom-otpravili-na-15-suto/> (murojaat etilgan vaqt 10.03.2022 y.)

¹¹ Ташкентцы, перекрывшие дорогу из-за переноса крупнейшего в городе рынка, получили от 5 до 7 суток ареста [Elektron manba] // URL: <https://mediazona.ca/news/2021/12/12/koilek> (murojaat etilgan vaqt 10.03.2022 y.)

¹² Қашқадарёда ишчиларидан салкам 2 млрд сўм қарздорлиги бўлган ташкилот ходимлари вилоят ҳокимлигида тўпланди [Elektron manba] // URL: <https://daryo.uz/k/2021/12/14/qashqadaryoda-ishchilaridan-salkam-2-mlrd-som-qarzdorligi-bolgan-tashkilot-xodimlari-viloyat-hokimligida-toplandi/> (murojaat etilgan vaqt 10.03.2022 y.)

¹³ Чилонзор тумани ободонлаштириш ходимлари ҳокимлик олдида тўпланди. Ҳоким улар билан учрашди [Elektron manba] // URL: <https://kun.uz/news/2021/12/17/chilonzor-tumani-obodonlashtirish-xodimlari-hokimlik-oldida-toplandi-hokim-ular-bilan-uchrashdi> (murojaat etilgan vaqt 10.03.2022 y.)

o'rnida ko'p qavatli uy qurilishiga qarshi yig'ilish o'tkazib, Hukumatga videomurojaat yo'llagan, shuningdek tegishli choralar ko'rilmagan taqdirda miting o'tkazishlarini aytib o'tgan¹⁴;

2022-yilning 21-aprel kuni Toshkent shahridagi 21-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari muassasada faoliyat yuritayotgan xodimlar tomonidan turli tazyiqlar o'tkazilayotganligidan norozi bo'lib namoyish o'tkazgan¹⁵;

2022-yilning 22-noyabr kuni publitsist Shokir Sharipov ichki ishlar organlari faoliyatidan norozi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri Po'lat Bobojonovning iste'fosini talab qilgan holda Chilonzor tumanidagi Yuriy Gagarin haykali oldida yakka tartibda piket o'tkazgan¹⁶;

2022-yilning 6-dekabr kuni Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanida joylashgan gips zavodi ishchilari tomonidan zavodning gaz ta'minoti to'xtatilganligi yuzasidan norozi bo'lib miting o'tkazgan¹⁷.

Yuqoridagilardan misollardan ko'rinib turibdi-ki, ijtimoiy-siyosiy sohada vujudga kelayotgan muammolar hamda ularning o'z vaqtida ijobiy hal etilmayotganligi miting, yig'ilish va namoyishlarni asosiy keltirib chiqaruvchi omillar hisoblanmoqda.

Bu esa, yuzaga kelayotgan miting, yig'ilish va namoyishlar natijasida to'g'ridan-to'g'ri jamoat xavfsizligiga tahdid kelib chiqishi mumkinligi bilan xarakterlamoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi loyihasi bilan bog'liq munosabatlar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasida yuzaga kelgan miting va namoyishlarning ommaviy tartibsizliklarga aylanib ketganligi mamlakat xavfsizlik tizimiga qanchalik putur yetkazganligini ko'rishimiz mumkin¹⁸. Zero, "Nukus voqealari"da yetkazilgan zarar 6,7 mlrd so'mni tashkil etgan¹⁹, shuningdek 2022-yilning 4-iyul holatiga ko'ra, Qoraqalpog'iston markazidagi bo'lib o'tgan namoyishlarda 18 nafar shaxs, jumladan, 4 nafar huquq-tartibot xodimi qurbon bo'lgan (*qurbon bo'lganlar soni 18-iyul holatiga 21 nafarni tashkil etgan*), 243 nafar shaxs, jumladan, 38 nafar huquq-tartibot xodimlari jarohatlangan²⁰.

¹⁴ Жители Мирзо-Улугбекского района выступают против строительства во дворе [Elektron manba] // URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2022/01/24/against-construction/#:~:text=Жители%20пяти%20домов%20в%20махалле,за%20разрешением%20на%20проведение%20митинга.> (murojaat etilgan vaqt 25.12.2022 y.)

¹⁵ В Ташкенте воспитанники детского дома вышли с протестом — видео [Elektron manba] // URL: <https://nova24.uz/incidents/v-tashkente-vospitanniki-detskogo-doma-vyshli-s-plakatami-video/> (murojaat etilgan vaqt 25.12.2022 y.)

¹⁶ Блогер вышел на одиночный пикет, требуя отставки главы МВД [Elektron manba] // URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2022/11/24/protest/> (murojaat etilgan vaqt 25.12.2022 y.)

¹⁷ В Фергане работники завода устроили несанкционированный митинг из-за отсутствия газа [Elektron manba] // URL: <https://kun.uz/ru/news/2022/12/09/v-fergane-rabotniki-zavoda-ustroili-nesanktsionirovannyu-miting-iz-za-otsutstviya-gaza> (murojaat etilgan vaqt 25.12.2022 y.)

¹⁸ В Узбекистане протестуют против поправок в конституцию [Elektron manba] // URL: <https://www.dw.com/ru/v-uzbekistane-protestujut-protiv-popravok-v-konstituciju/a-62335890> (murojaat etilgan vaqt 25.12.2022 y.)

¹⁹ Нукус вокеаларида 6,7 млрд сўм зарар етказилган — айблов [Elektron manba] // URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2022/11/28/nukus-sud/> (murojaat etilgan vaqt 25.12.2022 y.)

²⁰ Генпрокуратура Узбекистана: количество погибших в ходе митингов в Каракалпакстане выросло до 21 человека [Elektron manba] // URL: <https://mediazona.ca/news/2022/07/18/21> (murojaat etilgan vaqt 25.12.2022 y.)